

ABDULLA QAHHORNING “O’G’RI” VA “BEMOR” HIKOYALARI TAHLILI

Usarova Laylo Ibragimovna

O’zbekiston-Finlandiya Pedagogika Instituti O’zbek

Tili Va Adabiyoti Kafedrasи Dotsenti

Xo’jayeva Sevinch Uralboy Qizi

O’zbekiston-Finlandiya Pedagogika Instituti O’zbek

Tili Va Adabiyoti Yo’nalishi 1-Bosqich Talabasi

Annotatsiya

Mazkur maqolada Abdulla Qahhorning “O’g’ri” va “Bemor” hikoyalarida keltirilgan ikkinchi Jahon urushidan so’nggi xalq hayoti, uning turmush tarzi haqida mulohaza qilinadi.

Kalit so’zlar: bemor, tabib, amin, ho’kiz.

Abstract

In this article reflects on the life of the last people from the Second World War its lifestyle, presented in the stories “O’g’ri” and “Bemor” by Abdulla Qahhor.

Keywords: patient, doctor, governor, ox.

Abdulla Qahhorning “O’g’ri” va “Bemor” hikoyasi XX asrda xalq hayotini, sovet davrining xalq hayotiga ta’siri, moddiy va ma’naviy holatini aks ettiradi. Hikoyalarning epigrafi ham bunga misoldir. “Bemor” hikoyasiga tanlangan “Osmon uzoq, yer qattiq” maqoli qahramonning holatini yuzaga chiqarishga yordam beradi. Hikoyaning bosh qahramoni - Sotiboldi. U-chigit po’choq va kunjara bilan savdo qiladigan Abdug’aniboyning xizmatkori. Qahramonning maoshi haqida so’z ketmagan, ammo uning yashash sharoitidan moddiy holati haqida xulosa qilishimiz mumkin. Sotiboldi chorasisiz qolgan. “Bir kechasi bemor juda azob tortdi. U har ingraganda Sotiboldi chakkasiga burov solingan kishiday talvasaga tushar edi”[1; 112-b].

“O’g’ri” hikoyasi bosh qahramoni – Qobil bobo. Hikoyaga “Otning o’limi itning bayrami” maqoli ustalik bilan tanlangan. Qobil boboning bor-yo’q boyligi hisoblangan ho’kizi yo’qolgan. Uning musibatidan amaldorlar foydalanadilar.

Ikkala hikoyada ham qahramonlar kambag’al, nochor etib tasvirlanadi.

“Qidirtirsakmikin-a? – dedi amin chinchalogsini etigining ostiga artib, - suyunchisi nima bo’ladi, suyunchisidan chashna olib kelinmadimi?

Aminning bu gapi Qobil boboga “Ma ho’kizing” deganday bo’lib ketdi.

-Kam bo’lmang, - dedi pulni uzatib, - yana xizmatingizdaman.

-Men beto'xtovpristavga xabar beraman. O'zi chaqirtiradi" [2; 314-b]. Qobil bobo ro'zg'orida borini ellikboshi, aminga beradi. Ammo "...borilsin, arz qilinsin-da! Fuqaroning arzga borishi arbobning izzati bo'ladi!"[2; 314-b] javobini pulga sotib oladi. Sotiboldi bemorning yonidan jilmaslik uchun xonaki kasb o'rghanadi. "U ertadan kechgacha oftobshuvoqda gavronlar ichida ko'milib savat to'qirdi. To'rt yashar qizchasi qo'liga ro'molcha olib, onasining yuzini karaxt, xira pashshalardan qo'riydi; ba'zan qo'lida ro'molcha, mukka tushib uxbab qoladi"[1; 112-b]. Sotiboldining xo'jayini Abdug'aniboy ning o'zi omborda qulab ketgan qoplar ostida qolib o'ladigan bo'lganida dokrorxonaga bormay, Simga ketgan edi. Lekin Sotiboldi yordam so'rab borganida bo'yin tovlab: " Devonai Bahouddinga hech narsa ko'tardingmi? G'avzula'zamgachi?" [1;112-b] javobini beradi. Qobil boboning kampiri esa "duoning zo'ri bilan qulf ochadigan" azayimxonga obdastagardon qildiradi, ammo ish chiqmadi. Ikki hikoyadan ham xulosa qilishimiz mumkinki, xalq najotni folbin va bid'at ishlardan qidirmoqda.

"Yana ko'zini yumdi, shu yumgancha qaytib ochmadi—saharga borib uzildi. Sotiboldi qizchasini o'lik yonidan olib boshqa yoqqa yotqizayotganda, qizcha uyg'ondi va ko'zini ochmasdan odatdagicha duo qildi:

—Xudoyo, ayamdidaydiga davo beygin..." [1; 113-b] Hikoya shu tarzda yakun topadi. Olloh bemorning dardiga davoni jonini olish bilan bergen edi.

"O'g'ri " hikoyasi esa amaldorlardan hech bir tayinli yordam chiqmagach "...ellikboshi Qobil boboni boshlab qaynatasi— Egamberdi paxtafurushning oldiga olib bordi. Paxtafurush cholning holiga ko'p achindi va yerini haydarb olgani bitta emas, ikkita ho'kiz berdi,lekin "kichkinagina " sharti bor. Bu shart kuzda ma'lum bo'ladi..." [2; 315-b] Muallif hikoyani shu tarzda yakunlar ekan, muammoga yechim topishni kitobxonning o'ziga qo'yib beradi.

"Bemor " hikoyasi ramziy obrazlarga boy. Bemor — jamiyat ramzi. Jamiyat xasta, tuzalishga muhtoj. Sotiboldi jamiyatni tuzatishga harakat qilayotgan ilmli, ma'rifatparvarlar ramzidir. Bu kabi ramziy obrazlarni Abdulla Qahhor asarlarida juda ko'plab uchratish mumkin.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Umumiyl o'rta ta'lif maktablarining 6-sinfi uchun darslik-majmua

Adabiyot I qism. Toshkent 2017

2. Umumiyl o'rta ta'lif maktablarining 7-sinfi uchun darslik-majmua

Adabiyot Toshkent 2017.